

ITALY

**ONLINE
CONFERENCE**



**"FORMATION OF PSYCHOLOGY
AND PEDAGOGY AS
INTERDISCIPLINARY SCIENCES"**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE

CONFERENCE

WWW.INTERONCONF.ORG

ISBN 978-955-3605-86-4

© Sp. z o. o. "CAN", 2024

© Authors, 2024

FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference (13 October 2024). Part 33 – 169p.

Chief editor: Candra zonyfar- PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Tone Roald, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen

Elin Eriksen Ødegaard, Professor, Western Norway University of Applied Sciences

Mariane Hedegaard, Professor Emerita, Copenhagen University, Denmark

Magnus Englander, PhD Associate Professor of Psychology Malmö University, Sweden

Paul Sullivan, PhD University of Bradford Bradford, United Kingdom

Mathias TraczykSøren, PhD

Thiesen Amanda, PhD

Nybroe Rohde, PhD

Languages of publication: Italy, dansk, English, русский, беларуская, limba română, uzbek,

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES".

Gli atti della conferenza sono raccomandati per scienziati e insegnanti negli istituti di istruzione superiore. Possono essere utilizzati nell'istruzione, compreso il processo di insegnamento post-laurea, la preparazione per l'ottenimento di diplomi di laurea e master. La revisione di tutti gli articoli è stata effettuata da esperti, i materiali sono protetti dal diritto d'autore degli autori. Gli autori sono responsabili dei contenuti, dei risultati delle ricerche e degli errori.



TABLE OF CONTENTS

Mo‘minov Abduvali Akbaralievich Raxmonov Shuxrat Xusanboevich <i>NO‘XATNING BIOLOGIK QURUQ MASSA TO‘PLASHIGA URUG‘ EKISH MUDDATLARI VA ME‘YORLARINING TA‘SIRI.</i>	6
Islomjon Kodirov <i>INNOVATSIYALAR VA YANGI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH</i>	12
Tursunova Nozima Sultanovna <i>CORRELATION BETWEEN CAROTID ARTERY METABOLIC CHANGES AND MAFLD (METABOLICALLY ASSOCIATED FATTY LIVER DISEASE)</i>	15
Yusupbayeva Ulmeken Kenesbaevna Abruyeva Xilola Sherbekovna <i>THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF UZBEK GOODS IN INTERNATIONAL MARKETS AFTER JOINING THE WTO</i>	16
Xolmirzayev Yusufali Mahamadsaidovich <i>O‘ZBEKISTONNING SUV RESURSLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI</i>	19
Жалилов Лутфиёр Сотволдиевич <i>САНОАТ ВА МАИШИЙ ҚАТТИҚ ЧИҚИНДИЛАРНИ ЗАРАРСИЗЛАНТИРИШ ВА ҚАЙТА ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ АТРОФ-МУҲИТ МУХОФАЗАСИДАГИ ЎРНИ.</i>	35
Максудов Джамшид Джамалитдинович <i>ОЁҚ ВА ТЎПИҚ ОҒРИҚЛАРИ ВА УАММОЛАРИ</i>	51
Tuxtaxunov Dilshod Shakirjanovich <i>ZAMONAVIY DUNYODA QUROLLI MOJAROLARNING XUSUSIYATLARI “RANGLI INQILOBLAR” KO‘RINISHIDA</i>	55
Zaylobiddinova Ruxshonabonu Zohidjon qizi <i>THE IMPORTANCE OF LISTENING IN THE DEVELOPMENT OF SPEAKING’</i>	60
Boboyev Sarvar Baxtiyorovich <i>COLCHICUM AUTUMNALE L. KOLXITSINNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O‘RNI</i>	65
Shayxımanova Shaxnoza Joldasbay qızı <i>KISHI MEKTEP JASINDAĞÍ BALALARDA QIYAL PROCESSI.</i>	68
Abduxolikov Xusan Abdulaxat o‘g‘li <i>QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA INVESTITSIYALAR.</i>	73
Rushana Zaripova <i>JAMILA ERGASHEVA IJODIDA USLUB VA MAHORAT</i>	78
Nurmatov Sunnatillo Uzoq o‘g‘li <i>IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI USTIDAN SUD NAZORATINI AMALGA</i>	81



<i>OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	
Курбанов Алишер Рахимбаевич <i>ОЦЕНКА УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА</i>	84
Курбанов Алишер Рахимбаевич <i>ИЗУЧЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ</i>	90
Векmatova E'zoza Elmurod qizi <i>KARTOSHKKA X VIRUSINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING MUHUMLIGI VA UNING TARQALISHI.</i>	98
Kurbanov Alisher Rakhimbaevich <i>PRODUCTION EFFICIENCY ANALYSIS</i>	103
Курбанов Алишер Рахимбаевич <i>АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ</i>	107
Sh. Sh. Shuxratov V.A.Askarova <i>KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI</i>	110
Nuralieva D.M Kireev V.V Mukhamedova M.G <i>VITAMIN D LEVELS VALUES IN MILITARY PATIENTS WITH POST-COVID CARDIOLOGICAL SYNDROMES</i>	115
Tursinaliyev Dilshodjon Murodjonovich Qodirov Islomjon Iqboljon o'g'li <i>MAQSUD SHAYXZODA BUYUK TARJIMON</i>	117
Норкobilov Adham Erkin ugli <i>“МОДИФИКАЦИЯ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНТЕРЕФТАЛАТА КРЕМНИЙОРГАНИЧЕСКИМИ СОЕДИНЕНИЯМИ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА НИТЕЙ”</i>	119
Baynazarova Gulnoza Abdurasulovna <i>“ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В ОБРАЗОВАНИИ”</i>	123
Hojiyeva Sevaraxon Dilshodjon qizi <i>MATN USTIDA ISHLASHDA KOMMUNIKATIV O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI (INGLIZ TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH MISOLIDA)</i>	127
Saidqulova Gavhar Odiljon qizi <i>PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARI O'RTASIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MECHANIZMLARI</i>	133
Reymov Timur <i>QAROQALPOG'ISTON SHAROITIDA HIMOYALANGAN JOYLARDA SITRUS LIMON</i>	137



PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA'LIM
TALABALARI O'RTASIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH MEHANIZMLARI

Saidqulova Gavhar Odiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika univetsiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim talabalariga musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Maktabgacha ta'lim, musiqa, tarbiya, MTM, metod, uzluksiz ta'lim, mashg'ulot.*

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Hozirgi vaqtda respublikada 10000 dan ortiq davlat hamda xususiy ta'lim muassasasi faoliyat olib olib borayapti. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bug'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. MTM larda olib boriladigan barcha musiqiytarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlamini shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida am alga



oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimizdagi olam kabi konkret mashg'ulotlarda bolalarning abstrakt fikrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o'sib borsa, musiqa mashg'ulotlarida obrazli fikrlashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go'zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi. Turli uslublardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqiy mashg'ulot kichkintoylarda badiiy nafosat zavqini uyg'otadi, musiqaga qiziqishini o'stiradi. Musiqa mashg'ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarinig ahamiyati beqiyosdir. Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. MTTda musiqa mashg'ulotlari bo'yicha davlat o'quv standartlari va dasturlarini, darslik va metodik, o'quv qo'llanmalarini zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir.

Musiqiy-pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish yo'llari va shartsharoitlarni o'rganish natijasida ishonch hosil qildikki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining faoliyati o'zida pedagogik musiqachi-ma'rifatchi ishini birlashtiradi. Musiqa darsi esa, musiqa san'ati darsi xususiyatini saqlaydi. Shunday ekan, tayyorgarlikka ikki jihatdan qarash mumkin:

- a) musiqiy ta'lim va tarbiya mutaxassisi;
- b) bo'lajak o'qituvchining ruhiy dunyosini shakllantirish.

Musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash natijasida bitta shaxs qiyofasida musiqiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi va musiqiy-estetik tarbiya mutaxassisi namoyon bo'ladi. Biz, bo'lajak musiqa o'qituvchisining milliy musiqa san'ati orqali musiqiy-pedagogik tayyorgarliklariga taalluqli quyidagi muammolarni qarab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:



- talabalarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, munosabatni rivojlantirish;

- musiqa san'ati vositalari orqali musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik bosqichlarini tavsiflovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini shakllantirish;

- o'quv jarayonida talabalar musiqiy-pedagogik tayyorgarliklari xususiyatlarining namoyon bo'lishini aniqlash.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim talabalari o'rtasida musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun bir qator mexanizmlar va usullarni ko'rib chiqish mumkin. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarni e'tiborga olish lozim:

1. O'quv dasturlarini yangilash: Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini zamonaviy talablar va pedagogik yondashuvlarga mos ravishda yangilash zarur. Bu, o'quvchilarni musiqiy ijodkorlikka rag'batlantirishga yordam beradi.

2. Innovatsion metodlarni joriy etish: Musiqa o'qitishda innovatsion pedagogik metodlarni (masalan, faol o'qitish, interaktiv usullar, mavjud texnologiyalarni qo'llash) tatbiq etish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va musiqa ma'naviyatini rivojlantirish mumkin.

3. Amaliy mashg'ulotlar va tajriba almashinuvi: Talabalarni amaliy mashg'ulotlar orqali musiqa san'atiga jalb qilish, shuningdek, tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning tajribalaridan foydalanish mumkin.

4. Kurslar va seminarlar tashkil etish: O'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida turli kurslar va seminarlar tashkil etish, yangi metodlarni va texnologiyalarni o'rgatish orqali o'qitish sifatini yaxshilash mumkin.

5. Musiqa madaniyatini rivojlantirish: Talabalar o'rtasida musiqa madaniyatini oshirish uchun turli tadbirlar (konsertlar, festi-val-lar) o'tkazish, musiqa asarlarini ijro etishda qatnashishga imkon yaratish kerak.

6. Maktabgacha ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: Ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, tajriba almashish va o'quv dasturlarini bir-biriga moslashtirish orqali umumiy ta'lim sifatini oshirish mumkin.

7. Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini (masalan, onlayn platformalar, mobil ilovalar) musiqa o'qitish jarayonida qo'llash o'quvchilarning qiziqishini yanada oshiradi va o'qitish jarayonini yanada ko'proq interaktiv qilishi mumkin.

